



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta’siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta’siri.....	153
Mirzayeva L.S. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo‘llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo’stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo’stonova N.A., Nematjonova R.D. O‘zbekistonda aholining daromadlari va iste’mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta’siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo‘yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro‘li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni.....	221
Mamatov B.S. O‘zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta’minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar..	272

**KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING
RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY YO‘LLARI.**

**ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПУТИ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА
И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ.**

**ECONOMIC WAYS TO DEVELOP THE ACTIVITIES OF SMALL BUSINESSES
AND ENTREPRENEURS.**

Xolmirzayev Ikromjon Odiljon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Anotatsiya

Maqolada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy yo‘llar tanlab olinib, ilmiy fikrlash va qarashlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, korxonalar, tadbirkorlik, YAIM, mehnat resurslari, eksport, import.

В статье на основе научного мышления и взглядов отобраны и проанализированы экономические пути развития малого бизнеса и предпринимательских субъектов.

Ключевые слова: Малый бизнес, предприятие, предпринимательство, ВВП, ресурсы для приготовления коктейлей, экспорт, импорт

The article, based on scientific thinking and views, selects and analyzes economic development paths for small businesses and entrepreneurial entities.

Keywords: Small business, enterprise, entrepreneurship, GDP, cocktail resources, export, import

Respublikamizda raqamli iqtisodiyot sharoitda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi bilan jamiyatda o‘rta sinfnining paydo bo‘lishi iqtisodiy va siyosiy vaziyatning mo‘tadillashuviga olib keladi. Kichik biznes va tadbirkorlik ichki bozorni zarur iste‘mol tovarlari va xizmatlari bilan to‘ldirish bilan birga asosan aholini ish bilan bandligini ta‘minlash qolaversa foyda olishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Respublikamiz prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2025yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish maqsadida yalpi ichki mahsulotdagi kichik va o‘rta biznesning ulushini 55 foizga, sanoatda — 34 foizga, eksportda — 34 foizga va aholi bandligini ta‘minlashda 75 — foizga yetkazish, kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni "champion" tadbirkorlarga aylantirish vazifalari belgilab berilgan[1].

Jahon iqtisodiyotida ustun mavqega ega bo‘lgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholining turmush darajasini oshirdi. Masalan, Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarning yalpi ichki mahsulotidagi kichik va o‘rta biznesning ulushi 67%, Germaniyada — 65%, AQSHda — 52%. Yaponiyada ish bilan band aholining 80%, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida — 70% kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalariga to‘g‘ri keladi[2].

Iqtisodiyot soha va tarmoqlari, ishlab chiqarish hajmi miqdor hamda sifat jihatdan ortmoqda. Ularning ko‘lami kengayib, tarkibiy tuzilishida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, kichik biznesning ko‘lami ham yildan-yilga ortib kengayib bermoqda. Shuningdek, uning YAHMdagi, ish bilan bandlikdagi hamda tarmoqlardagi ulushi ham o‘smoqda. Shunday bo‘lsada, ushbu sohaning

sanoatdagi ulushi nisbatan sekin o‘zgarishlarni aks ettirmoqda. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasi va unda ko‘rsatilgan vazifalar muhim ahamiyatga egadir. Mazkur hujjatda belgilangan iqtisodiy masalalar zahirida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan[3].

Bunda, iqtisodiyot barqarorligini ifodalovchi asosiy mezon YAIM ekanligini e‘tiborga olsak, uning asosiy qismi kichik biznes subyektlari hissasiga tegishli. Demak, ushbu sohani tarmoq tuzilishini o‘rganish, uning iqtisodiyotdagi o‘mini tizimli tahlil etish zarur. Olingan natijalar mintaqa iqtisodiyoti ko‘lamini, takror ishlab chiqarishni kengayishiga va eng asosiysi, omillar samarali bandligini ta‘minlashga hamda barqaror rivojlanishga olib keladi.

Andijon viloyatida kichik biznes faoliyati yuqori ko‘lamga bo‘lib, ish bilan bandlikni ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi 1-jadvalga qarang. Jumladan, viloyat shahar va tumanlari respublikaning boshqa hududlariga nisbatan mehnat bozorini o‘ziga xos jihatlarga ega. Mazkur mintaqa hududi bo‘yicha respublika 1 foizini tashkil etgani holda, aholining 9 foizdan ortiq qismini o‘z ichiga oladi. Shunday bo‘lsada, ishsizlik darajasi respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichga teng. Mehnat resurslarining yetarliligi mazkur viloyatda sanoat korxonalarini kengaytirishni, ushbu sohada kichik biznesni rivojlantirishni talab etadi.

Shuningdek, kichik biznesning viloyat tarmoqlaridagi ulushi ko‘rilganda eng kichik qiymatlarni sanoat aks ettirmoqda. Jumladan, oxirgi yillardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, kichik biznesning sanoatdagi ulushi xizmatlardagi ulushiga nisbatan 3-marta, qurilishga nisbatan 4,5-marta va qishloq xo‘jaligiga nisbatan 5-marta kichik. Shunday bo‘lsada, kichik biznesga yo‘naltirilgan investitsiyaning asosiy qismi sanoat va xizmatlarga yo‘naltirilmoqda. Bu esa, kichik biznesning tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarish hajmini investitsiyalar ko‘lamiga nisbatan nomutanosibligini aks ettirmoqda. Sanoat tarmog‘iga yo‘naltirilgan investitsiya hajmi yalpi investitsiyada eng yuqori ulushga ega bo‘lsada, uning ishlab chiqarish hajmining ulushi esa eng kam ko‘rsatkichni ifodalamoqda. Ya‘ni, bu soha kapital sig‘imdorligi yuqori bo‘lib, mazkur manbadan foydalanish darajasi past holatni ifodalamoqda. Shu o‘rinda, eng yuqori ulushga qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning eng pastligi sohada mehnat talabi yuqoriligini ifodalaydi. Shuni alohida ta‘kidlashimiz lozimki, qo‘l mehnati yuqori, mehnat talab sohalarda odatda malakasiz mehnatdan foydalanilganligi bois, innovatsion jarayon sust yuz beradi.

Ayniqsa, aholi zich, keng ko‘lamli mehnat resursi mavjud Andijon viloyatida kichik biznes sohasini kengaytirish muhimdir. Viloyatda 2015-2024-yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi umumiy holda 1,3-martaga ortib, 54,7 foizdan 71,4 foizgacha o‘sgan. Shuningdek, 2024-yil yakunlari bo‘yicha kichik biznesning soha va tarmoqlar ulushi tadqiq etilganda, qishloq xo‘jaligi (99,3 foiz), qurilish (97 foiz), yuk tashish (95 foiz), yo‘lovchi tashish (96 foiz) yetakchi hissaga ega bo‘lgan. Kichik biznes subyektlarining eksport-import operatsiyalaridagi ishtiroki ham tadqiqot davrida turlicha ko‘rinish hosil qilgan bo‘lib, 2024-yilda kichik biznesning eksportdagi ulushi 59,8 foizga, importdagi ulushi esa 15,9 foizni tashkil etgan. Bu esa 2015-yilga nisbatan mos ravishda 9,3 va 4,3 barobarga ortgan. Bu esa viloyat kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatlarini so‘ngi yillarda o‘sganligini namoyon etadi. O‘z navbatidagi sohaning aholi bandligidagi ulushi xam so‘ngi yillarda o‘sgan bo‘lib, 2024-yilda 84,8 foizni tashkil etgan. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridan biri – sanoatning ulushi 2015-2024-yillar davomida 2,5-martaga ortgan bo‘lsada, 21,4 foizni tashkil etgan.

1-jadval

Andijon viloyatida kichik biznes faoliyatiga tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlar (kamiga nisbatan foiz hisobida)[4]

№	Ko‘rsatkichlar nomi / yil	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	YAHM	54,7	56,3	57,4	57,5	59,4	60	66	72	73,4	71,4
2	Sanoat	8,4	12,3	12,3	11,7	17,4	18,3	49,6	34,4	19,8	21,4
3	Qishloq xo‘jaligi	98,9	99,8	99,8	99,9	99,8	99,8	99,7	99,7	98,9	99,3

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2026 yil

4	Kapital qo‘shilmalar	50,4	42,9	42,9	49,6	52,1	50,5	57,8	54,1	53,8	67,3
5	Qurilish ishlari	94,0	93,1	93,1	89,9	92,8	93,1	94,1	94,3	96,4	97,0
6	Chakana savdo aylanmasi	51,0	45	44,5	44	44,1	44,6	93,6	91,9	88,8	87,4
7	Jami xizmatlar	61,5	64,8	65,8	68,1	74,2	71,5	72,9	73,7	71,7	68,7
8	Yuk tashish	71,8	79,7	82,5	82,5	85,6	93,3	94,2	94,8	94,0	95,0
9	Yo‘lovchi tashish	83,9	82,9	85,8	85,8	84,5	87,8	92,1	96,6	96,4	96,0
10	Eksport	6,4	9,7	11,9	18,3	27,5	56,3	75,7	56,0	74,1	59,8
11	Import	3,7	7,0	8,0	5,3	7,0	8,1	16,5	18,1	16,4	15,9
12	Aholi bandligi	81,2	82,4	82,9	83,2	84,0	83,8	84,1	84,5	84,6	84,8

Sanoat tarmog‘ini kengaytirish, uning ishlab chiqarish hajmini oshirish qo‘shilgan qiymat zanjirini harakatga keltiradi. Shu bois, kichik biznesning ko‘lamini mazkur tarmoqda kengaytirishga alohida e‘tibor qaratishni talab qiladi. Shuningdek, innovatsiyaning asosiy qismi ham sanoat tarmog‘ida yaratiladi.

Kichik biznesning viloyat soha va tarmoqlaridagi ko‘lamini baholash natijasida xizmatlar yetakchi ulushga ega ekanligi aniqlandi. Shunday bo‘lsada, xizmatlar sohasining tarkibida yo‘lovchi va yuk tashish, chakana va ulgurji savdo xizmatlari tarmoqlari yetakchi ulushni tashkil qilgan.

Jumladan, xizmatlar sohasi tarkibida rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy munosabatlar, turizm xizmatlari va qimmatli qog‘ozlar bozorining ulushi yuqori. Bizga ma‘lumki, qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishi investitsiyalar ko‘lamiga ham ijobiy ta‘sir qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida esa qimmatli qog‘ozlar bozorining ko‘lami kichik ulushga ega.

Shu bilan birga, mamlakatimizda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi qaralganda bozor iqtisodiyotiga xos holat aks etmoqda. Xususan, xizmatlar sohasi yetakchi, sanoat keyingi o‘rinda va oxirgi kichik ulush qishloq xo‘jaligiga tegishli. Lekin, ish bilan bandlik bo‘yicha tarmoqlar kesimidagi tarkibiy tuzilish baholanganda, aksincha holat, sanoatga nisbatan qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ulushi oxirgi yillar ma‘lumotini tahlil qilganimizda 1,5 barobar yuqori (sanoat tarkibida qurilish tarmog‘i kiritilgan holda hisoblandi)[5].

2-jadval

Andijon viloyatida kichik biznes faoliyatiga tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlar (kamiga nisbatan foiz hisobida)[6]

№	Ko‘rsatkichlar nomi/ншд	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	YAHM	54,7	56,3	57,4	57,5	59,4	60	66	72	73,4	71,4
2	Sanoat	8,4	12,3	12,3	11,7	17,4	18,3	49,6	34,4	19,8	21,4
3	Qishloq xo‘jaligi	98,9	99,8	99,8	99,9	99,8	99,8	99,7	99,7	98,9	99,3
4	Kapital qo‘shilmalar	50,4	42,9	42,9	49,6	52,1	50,5	57,8	54,1	53,8	67,3
5	Qurilish ishlari	94,0	93,1	93,1	89,9	92,8	93,1	94,1	94,3	96,4	97,0
6	Chakana savdo aylanmasi	51,0	45	44,5	44	44,1	44,6	93,6	91,9	88,8	87,4
7	Jami xizmatlar	61,5	64,8	65,8	68,1	74,2	71,5	72,9	73,7	71,7	68,7
8	Yuk tashish	71,8	79,7	82,5	82,5	85,6	93,3	94,2	94,8	94,0	95,0
9	Yo‘lovchi tashish	83,9	82,9	85,8	85,8	84,5	87,8	92,1	96,6	96,4	96,0
10	Eksport	6,4	9,7	11,9	18,3	27,5	56,3	75,7	56,0	74,1	59,8
11	Import	3,7	7,0	8,0	5,3	7,0	8,1	16,5	18,1	16,4	15,9
12	Aholi bandligi	81,2	82,4	82,9	83,2	84,0	83,8	84,1	84,5	84,6	84,8

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2026 yil

Bu esa, joriy vaqtda iqtisodiyotdagi resurslarning samarali va to‘liq bandligi ta’minlanmaganligidan dalolat beradi. Jumladan, ishsizlik darajasi respublika bo‘yicha ham viloyatda ham oxirgi yillarda o‘rtacha 7-8 foizga teng bo‘lmoqda[6]. Mazkur masalalarni ijobiy hal qilishda mintaqalarning iqtisodiy salohiyatining joriy holatini baholashimiz lozim. Mehnat bozorini tartibga solish va ish bilan bandlikni samarali amalga oshirishda kichik biznesning roli ahamiyatlidir. Shuningdek, kichik biznesni va uning real sektor sohasidagi faoliyatini kengaytirish tarkibiy islohotlar samaradorligini oshiradi. Bu esa umumiy ishlab chiqarish ko‘lamini oshishiga, makroiqtisodiy o‘shish va barqarorlikning ta’minlanishiga olib keladi. Viloyatdagi sanoat tarmog‘ida kichik biznesning ulushini oshirish uchun yetarlicha salohiyat mavjud. Jumladan, mehnat resurslari, ular tarkibida ish bilan band bo‘lmaganlar mavjud, xom ashyo va resurslar bor. Shuningdek, sanoatni rivojlantirish uchun integratsiya jarayonlarini amalga oshirishga ham institutsional asos mavjud. Ya’ni, avtomobilsozlik zavodi, u bilan bog‘liq korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi viloyat hamda vodiy hududlarida joylashgan. Kichik biznes hududiy mahsulotdagi xizmatlar sohasini asosiy ulushini tashkil etmoqda. Bu esa, iqtisodiyot rivojlanishini sifat jihatdan ta’minlovchi real sektordagi ulushini oshirishni talab qiladi. Bunda, yirik va kichik biznesning sanoatdagi integratsiyasiga e’tibor berish lozim.

3-jadval

Andijon viloyati tuman va shaharlarida kichik biznes subyektlari zichligi holati[7]

№	Hududlar/yil	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Viloyat bo‘yicha:	13,4	13,8	13,6	7,6	8,0	8,2	8,0	7,2	7,8	9,2
2	Andijon sh.	14,7	16,9	16,6	18,4	19,3	20,0	18,4	17,8	19,5	22,7
3	Xonobod sh.	6,2	7,1	7,0	6,8	6,8	6,9	7,1	6,7	8,4	12,1
4	Andijon t.	13,6	11,7	11,5	6,5	6,9	7,0	7,3	6,0	6,7	8,1
5	Asaka t.	11,1	11,7	11,5	6,2	6,8	7,2	6,9	6,4	6,9	8,0
6	Baliqchi t.	16,8	17,9	17,6	7,2	7,6	7,8	7,1	6,3	6,1	6,3
7	Bo‘ston (Bo‘z)	18,1	15,2	14,9	7,4	7,5	7,9	8,0	6,9	7,7	9,5
8	Buloqboshi	11,2	10,0	9,8	3,6	3,4	3,5	3,6	3,5	3,9	5,2
9	Jalaquduq .	13,2	14,2	14,0	4,4	4,6	4,7	4,8	4,2	4,5	5,4
10	Izboskan t.	7,4	6,7	6,5	4,5	4,9	4,6	4,6	3,9	4,5	5,9
11	Ulug‘nor t.	28,6	29,1	28,7	7,4	8,0	8,4	9,0	6,4	7,2	8,3
12	Qo‘rg‘ontepa	14,4	15,3	15,0	6,3	6,3	6,4	5,9	5,5	5,7	6,4
13	Marhamat t.	16,4	17,1	16,8	6,6	6,8	6,9	6,8	5,4	6,2	7,6
14	Oltinko‘l t.	14,0	14,0	13,8	7,6	7,7	8,0	7,6	6,8	7,2	8,1
15	Paxtaobod	12,6	13,3	13,1	3,9	4,0	4,0	4,1	3,4	3,8	5,0
16	Xo‘jaobod	20,7	19,8	19,4	6,6	7,0	7,0	7,7	6,5	7,2	8,8
17	Shahrixon	9,4	10,5	10,3	5,1	5,4	5,5	6,0	5,4	5,8	6,8
18	Eng yuqori qiymat	28,6	29,1	28,7	18,4	19,3	20,0	18,4	17,8	19,5	22,7
19	Eng kichik qiymat	6,2	6,7	6,5	3,6	3,4	3,5	3,6	3,4	3,8	5,0
20	O‘rtacha qiymat	14,2	14,4	14,1	6,8	7,1	7,3	7,2	6,4	7,0	8,4

Izoh: har ming kishiga to‘g‘ri kelgan kichik biznes subyektlari soni asosida baholangan.

Odatda, soha va tarmoqlar kesimidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash, ustuvor tarmoqni aniqlash imkonini beradi. Shunday bo‘lsada, Andijon viloyati tuman va shaharlari hududiy xususiyatlarga ham ega. Shu bois, kichik biznes subyektlarining tuman va shaharlar kesimidagi holati, soni va faoliyatini o‘rganish zarur. Bunda, ulardan barqaror faoliyatlarini aniqlash, buning omillarini tizimli tadqiq etish hamda solishtirma baholash orqali nisbiy ustunliklarini aniqlaymiz. Mazkur

baholash jarayonida kichik biznesning zichlik ko‘rsatkichi muhim o‘rin tutadi. Jumladan, kichik biznes subyektlari faoliyatini soha va tarmoqlardagi holati bilan birga, hududlardagi ko‘rsatkichlariga, uning zichligiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim.

Kichik biznes subyektlarining Andijon viloyati tuman va shaharlari kesimidagi zichligi o‘rganilganda yuqori ko‘rsatkich Andijon (22,7) va Xonobod (12,1) shaharlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, kichik ko‘rsatkichlar Izboskan (5,9), Jalaquduq (5,4), Buloqboshi (5,2) va Paxtaobod (5,0) tumanlariga to‘g‘ri kelgan. 2024-yil holatiga ushbu ko‘rsatkich viloyat bo‘yicha 9,2 birlikni tashkil etgan Mazkur holatni baholashda faoliyat yuritayotgan subyektlar ulushi tizimli ravishda tahlil etilganda ham yuqori holat Andijon va Xonobod shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, Andijon viloyati shahar va tumanlarida kichik biznes subyektlari zichlik ko‘rsatkichlari 2015-2017-yillarda yuqori qiymatlarni aks ettirgan. 2024-yildan esa, keskin qisqarish yuz bergan. Buning asosiy sababi, qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilgan agrar islohotlar bilan bog‘liq. Ya‘ni, fermer xo‘jaliklarini yiriklashtirish natijasida ularning soni qisqargan. Mazkur holatni yanada yaqqol baholash uchun Andijon va Xonobod shaharlariga tegishli ko‘rsatkichlar tendensiyasini tahlil qilamiz. Andijon shahrida kichik biznesning zichligi 2015-yildagi 14,7 birlikdan, notekis o‘zgarib borib, 2024-yilda 22,7 birlikka yetgan. Xonobod shahrida esa ushbu davrda zichlik ko‘rsatkichi 6,7 birlikdan 12,1 ga o‘sgan. Qolgan hududlarda, ya‘ni tumanlardagi ko‘rsatkichlar 2015-2017-yillardagi qiymatlariga nisbatan kichik birliklarga ega ekanligi hisob-kitoblarimiz asosida aniqlandi. Bu holat yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, qishloq xo‘jaligi korxonalarining optimallashtirish chora-tadbirlari bilan bog‘liq.

Umumiy holda, kichik biznes faoliyatini rivojlantirish, uning barqarorligini ta‘minlash uchun tadbirkorlik subyektlari sonini o‘stirish bilan birga, faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar sonini ham oshirish zarur. Bunda, uning omillaridan oqilona va samarali foydalanish talab etiladi. Natijada, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxini kamayishi hisobiga (resurs sarfi samaradorlik hisobiga qisqaradi) ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligi ortadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo‘lgan talabning o‘sishi kichik biznes faoliyati davomiyligini hamda barqarorligini ta‘minlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmanov Q.X. O‘zbekistonda inson omili va manfaatlari eng oliy qadriyat. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2017. - 364 b.
2. Abdurahmanova G.Q. Kichik biznesda aholini ish bilan ta‘minlash. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2014. – 216 b.
3. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 19.03.2025y N PF-50 farmoni
4. http://testhistory.ru/history.php?id=his_5_75
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.
6. Andijon viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma‘lumotlari.
7. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.
8. Andijon viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.